



SHAXS RIVOJIDA O'QITISH JARAYONINING TA'LIMIY VA TARBIYAVIY TA'SIRINI ILMIY TAHLIL ETISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21018483>

Osiyo xalqaro universiteti MM101-P25-guruh talabasi
Bobojonova Farangiz Maqsud qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs rivojida o'qitish jarayonining ta'limiy va tarbiyaviy ta'siri kompleks ilmiy tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim paradigmasi o'zgarishi sharoitida o'qitish jarayoni nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, balki shaxsning ijodiy, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy sifatlarini rivojlantirish vazifasini ham o'z oldiga qo'yimoqda. Tadqiqotda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, individuallashtirish va o'z-o'zini tarbiyalash fenomenlari nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilingan. 2025-2026-o'quv yilida Urganch shahridagi uchta umumta'lim maktabining 9-11-sinf o'quvchilari va ularning o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari taqdim etilgan. Tadqiqotda o'qitish jarayonining ta'limiy va tarbiyaviy ta'sirini baholash uchun maxsus ishlab chiqilgan metodika, shuningdek, J.Gilford va E.Torrens kreativlik testlari, shaxsning axloqiy-irodaviy sifatlarini o'rganish anketalari qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'qitish jarayonining ta'limiy va tarbiyaviy komponentlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularning uyg'unligi shaxs rivojining muhim omili hisoblanadi. Shuningdek, an'anaviy va innovatsion yondashuvlar qo'llaniladigan sinflarda o'quvchilarning bilish faolligi, kreativligi va axloqiy-irodaviy sifatleri ko'rsatkichlari o'rtasida statistik ahamiyatga ega farqlar aniqlandi. Maqolada olingan natijalar asosida o'qitish jarayonining shaxs rivojiga ta'sirini kuchaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: shaxs rivoji, ta'limiy ta'sir, tarbiyaviy ta'sir, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, individuallashtirish, o'z-o'zini tarbiyalash, kreativlik, axloqiy-irodaviy sifatlar, ta'lim metodlari, pedagogik texnologiyalar.

KIRISH

Mustaqil O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatli va ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz ta'lim va tarbiya

tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb bilamiz". Bu esa o'qitish jarayonining shaxs rivojiga ta'sirini chuqur ilmiy tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Shaxs rivoji murakkab, ko'p omilli va dialektik jarayon bo'lib, unda biologik



(irsiy) va ijtimoiy (muhit, tarbiya) omillar o‘zaro murakkab munosabatda bo‘ladi. A.N.Leontev, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn kabi psixologlarning tadqiqotlarida shaxs rivojida faoliyat va muloqotning hal qiluvchi roli asoslab berilgan. Ta‘lim-tarbiya jarayoni esa shaxs rivojiga maqsadli, tizimli va rejali tarzda ta‘sir ko‘rsatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. O‘qitish jarayoni o‘zining tabiatiga ko‘ra ikki yoqlama xususiyatga ega: ta‘limiy va tarbiyaviy. Ta‘limiy jihat bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa, tarbiyaviy jihat shaxsning dunyoqarashi, e‘tiqodi, axloqiy sifatleri, estetik didi va jismoniy kamolotiga ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu ikki jihatning dialektik birligi va o‘zaro ta‘siri shaxsning uyg‘un rivojlanishini ta‘minlaydi.

Zamonaviy pedagogika fanida o‘qitish jarayonining shaxs rivojiga ta‘siri muammosi turli yo‘nalishlarda tadqiq etilmoqda: shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, ta‘limni individuallashtirish, kompetensiyaviy yondashuv, kreativ pedagogika va boshqalar. Xususan, Fattoyeva O.N. (2023) tadqiqotlarida ta‘lim-tarbiyadagi individual yondashuv shaxsning psixologik xususiyatlarini ilmiy va tajriba asosida tushunishni anglatishi ta‘kidlangan. Xutorskoy A. (2003) esa shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim paradigmasida kalit kompetensiyalarning rolini asoslab bergan. Biroq, o‘qitish jarayonining ta‘limiy va tarbiyaviy ta‘sirini kompleks tarzda, zamonaviy diagnostik metodlar asosida o‘rganish, ularning o‘zaro nisbati va shaxs rivojidagi

rolini aniqlash bo‘yicha maxsus tadqiqotlar yetarli emas. Ayniqsa, o‘zbek maktablarida ta‘lim-tarbiya jarayonining real holatini aks ettiruvchi empirik ma‘lumotlar kamchilikni tashkil etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi – shaxs rivojida o‘qitish jarayonining ta‘limiy va tarbiyaviy ta‘sirini ilmiy tahlil qilish, ularning o‘zaro bog‘liqligi va samaradorligini empirik jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari :

1. O‘qitish jarayonining ta‘limiy va tarbiyaviy ta‘sirining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish;
2. Shaxs rivojiga ta‘sir etuvchi o‘qitish omillarini aniqlash va tizimlashtirish;
3. O‘qitish jarayonining ta‘limiy va tarbiyaviy ta‘sirini baholash metodikasini ishlab chiqish;
4. Empirik tadqiqot asosida o‘qitish jarayonining shaxs rivojiga ta‘sirini miqdoriy va sifat jihatidan tahlil qilish;
5. Olingan natijalar asosida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosini shaxs faoliyat sub‘ekti sifatidagi konsepsiya (S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev), rivojlantiruvchi ta‘lim nazariyasi (L.S.Vigotskiy, V.V.Davidov), shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim konsepsiyasi (I.S.Yakimanskaya, V.V.Serikov) va tizimli-faoliyatli yondashuv tashkil etadi. Tadqiqot bosqichlari. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:



1. Tayyorgarlik bosqichi (2025-yil sentabr-oktabr) – nazariy manbalar tahlili, tadqiqot dasturi va metodikasini ishlab chiqish, eksperimental baza bilan kelishish;

2. Asosiy bosqich (2025-yil noyabr-dekabr) – empirik ma'lumotlarni to'plash, anketa so'rovlari va testlash o'tkazish;

3. Yakuniy bosqich (2026-yil yanvar) – olingan natijalarni statistik qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish, ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot bazasi va tanlanma. Tadqiqot Urganch shahridagi uchta umumta'lim maktabida (12, 23 va 28-maktablar) o'tkazildi. Tadqiqotda 9-11-sinf o'quvchilaridan iborat 90 nafar respondent (48 nafar qiz, 42 nafar o'g'il) hamda 14 nafar o'qituvchi ishtirok etdi. Tanlanmani shakllantirishda qatlamli tasodifiy tanlash usuli qo'llanildi. O'quvchilarning yosh tarkibi: 9-sinflar – 30 nafar (15 yosh), 10-sinflar – 30 nafar (16 yosh), 11-sinflar – 30 nafar (17 yosh).

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. Nazariy metodlar: psixologik-pedagogik adabiyotlarning qiyosiy-tahliliy o'rganilishi, mavjud tajribalarni umumlashtirish, modellashtirish;

2. Empirik metodlar:

Kuzatish (dars jarayonlarini kuzatish va tahlil qilish);

So'rovnoma (mualliflik anketasi – "O'qitish jarayonining shaxs rivojiga ta'siri");

Testlash (J.Gilford va E.Torrens kreativlik testlari qisqartirilgan variantlari);

Shaxsning axloqiy-irodaviy sifatlarini o'rganish metodikasi (M.V.Matyuxina, T.A.Ratanova);

Ekspert baholash (o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarning ta'limiy va tarbiyaviy ko'rsatkichlarini baholash);

3. Statistik metodlar: ma'lumotlarni matematik-statistik qayta ishlash (o'rtacha qiymat, standart og'ish, Student t-mezoni, korrelyatsion tahlil).

Metodikani tavsifi. Tadqiqot uchun maxsus ishlab chiqilgan "O'qitish jarayonining shaxs rivojiga ta'siri" anketasi ikkita asosiy blokdan iborat:

Ta'limiy ta'sir bloki: bilimlarni o'zlashtirish darajasi, o'quv motivatsiyasi, bilish faolligi, mustaqil ishlash ko'nikmalari, tahliliy fikrlash (15 ta savol);

Tarbiyaviy ta'sir bloki: axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat, kommunikativ ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqarish, ijodiy tashabbuskorlik (15 ta savol).

Har bir savol Likert shkalasi (1 dan 5 gacha) bo'yicha baholandi. Anketaning ishonchliligi Kronbax alfa koeffitsienti bilan tekshirildi ($\alpha=0.87$), bu yuqori ishonchlilikni ko'rsatadi. Kreativlikni baholashda Torrens testining "Figurali shakllar" subtesti hamda Gilford testining "So'zlardan foydalanish" topshirig'i qo'llanildi. Axloqiy-irodaviy sifatlar M.V.Matyuxina va T.A.Ratanova metodikasi asosida 5 parametr bo'yicha



(maqsadga intiluvchanlik, qat'iyatlilik, mustaqillik, tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik) o'rganildi.

Tadqiqotning cheklolari: tadqiqot faqat Urganch shahri maktablari bilan chegaralangan, bu esa natijalarni respublikaning barcha hududlariga umumlashtirish imkoniyatini cheklaydi. Shuningdek, o'qitish jarayonining ta'sirini uzunlamasına (longitudinal) o'rganish imkoni bo'lmadi, faqat bir marta o'lchash amalga oshirildi.

1-jadval. O'qitish jarayonining ta'limiy ta'siri ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'rtacha qiymat (M)	Standart og'ish (o)	O'qituvchi bahosi
Bilimlarni o'zlashtirish darajasi	3.84	0.76	3.72
O'quv motivatsiyasi	3.91	0.82	3.68
Bilish faolligi	3.62	0.91	3.45
Mustaqil ishlash ko'nikmalari	3.73	0.88	3.51
Tahliliy fikrlash	3.58	0.94	3.4
Umumiy ta'limiy ta'sir	3.74	0.72	3.55

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, o'quvchilarning o'z-o'zini baholashi (M=3.74) o'qituvchilar bahosidan (M=3.55) nisbatan yuqori. Eng yuqori ko'rsatkich o'quv motivatsiyasida (M=3.91), eng past ko'rsatkich esa tahliliy fikrlashda (M=3.58) kuzatildi. Bu o'quvchilarning bilim olishga intilishi yuqori, ammo tahliliy fikrlash ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Sinf kesimida tahlil qilinganda, 11-sinf o'quvchilarida ta'limiy ta'sir ko'rsatkichlari (M=3.89) 9-sinf (M=3.61) va 10-sinf (M=3.72) o'quvchilariga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Farqlar statistik ahamiyatga ega ($p < 0.05$).

2. O'qitish jarayonining tarbiyaviy ta'siri ko'rsatkichlari

2-jadval. O'qitish jarayonining tarbiyaviy ta'siri ko'rsatkichlari



Ko'rsatgichlar	O'rtacha qiymat (M)	Standart og'ish (o)	O'qituvchi bahosi
Axloqiy qadriyatlar	4.12	0.68	4.05
Ijtimoiy mas'uliyat	3.85	0.79	3.78
Kommunikativ ko'nikmalar	4.08	0.73	3.95
O'z-o'zini boshqarish	3.67	0.86	3.54
Ijodiy tashabbuskorlik	3.59	0.92	3.42
Umumiy tarbiyaviy ta'sir	3.86	0.68	3.75

Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatkichlari (M=3.86) ta'limiy ta'sir ko'rsatkichlaridan (M=3.74) yuqori. Eng yuqori ko'rsatkich axloqiy qadriyatlarda (M=4.12), eng past ko'rsatkich esa ijodiy tashabbuskorlikda (M=3.59) qayd etildi. Bu maktab ta'limida an'anaviy axloqiy tarbiyaga yetarlicha e'tibor qaratilayotgani, biroq o'quvchilarning ijodiy tashabbuskorligini rivojlantirish borasida muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

3. Kreativlik ko'rsatkichlari tahlili: Torrens va Gilford testlari asosida o'quvchilarning kreativlik darajasi o'rganildi

3-jadval. O'quvchilarning kreativlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatgichlar	O'rtacha qiymat (M)	Standart og'ish (o)	Maksimal ball
Ravonlik (fluency)	8.42	2.31	15
Moslashuvchanlik (flexibility)	6.85	2.08	12
Originallik (originality)	5.37	2.24	10
Ishlab chiqish (elaboration)	4.93	1.96	10
Umumiy kreativlik	25.57	6.83	47



Olingan natijalar o'quvchilarning kreativlik darajasi o'rtachadan past ekanligini ko'rsatadi (umumiy kreativlik 47 balldan 25.57). Ayniqsa, originallik (5.37) va ishlab chiqish (4.93) ko'rsatkichlari past. Bu o'quvchilarning standart, namunaviy fikrlashga moyilligi, original g'oyalarni ilgari surish va ularni rivojlantirish ko'nikmalarining yetarli emasligidan dalolat beradi.

Ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir o'rtasidagi bog'liqlik

Korrelyatsion tahlil natijalari ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatkichlari o'rtasida o'rtacha darajadagi ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi ($r=0.48$; $p<0.01$). Bu ikki komponentning o'zaro aloqadorligini, ammo ularning to'liq mos kelmasligini anglatadi. Ayrim o'quvchilarda yuqori ta'limiy ko'rsatkichlar past tarbiyaviy ko'rsatkichlar bilan uyg'unlashgan va aksincha holatlar kuzatildi.

Kreativlik va tarbiyaviy ta'sir o'rtasida ($r=0.52$; $p<0.01$) hamda kreativlik va ta'limiy ta'sir o'rtasida ($r=0.39$; $p<0.05$) ijobiy korrelyatsiya aniqlandi. Bu kreativlikning shaxs rivojidadagi muhim rolini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari o'qitish jarayonining shaxs rivojiga ta'limiy va tarbiyaviy ta'siri murakkab va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalarni mavjud nazariy konsepsiyalar va oldingi tadqiqotlar bilan solishtirgan holda muhokama qilamiz.

Birinchidan, tadqiqotda ta'limiy va

tarbiyaviy ta'sir ko'rsatkichlari o'rtacha darajadan yuqori (mos ravishda 3.74 va 3.86) ekanligi aniqlandi. Bu umumiy ma'noda maktab ta'lim-tarbiya jarayonining nisbatan samarali ekanligidan dalolat beradi. Biroq, Fattoyeva O.N. (2023) ta'kidlaganidek, "ta'lim-tarbiyadagi individual yondashuv shaxsning psixologik xususiyatlarini ilmiy va tajriba asosida tushunishni anglatadi". Tadqiqotimizda ayrim o'quvchilarda ta'limiy va tarbiyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovut, shuningdek, standart og'ishlarning nisbatan yuqoriligi (0.68-0.94) individual xususiyatlarni yetarli darajada hisobga olinmayotganidan dalolat berishi mumkin.

Ikkinchidan, ta'limiy ta'sir tarkibida tahliliy fikrlash ($M=3.58$) va bilish faolligi ($M=3.62$) ko'rsatkichlarining nisbatan pastligi, tarbiyaviy ta'sir tarkibida esa ijodiy tashabbuskorlik ($M=3.59$) va o'z-o'zini boshqarish ($M=3.67$) ko'rsatkichlarining pastligi diqqatga sazovor. Bu natijalar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasida ta'kidlanganidek, o'quvchining sub'ektiv tajribasiga tayanish, uni boyitish va rivojlantirish zaruratini tasdiqlaydi. Yakimanskaya I.S. ta'kidlaganidek, o'qitish jarayonida o'quvchining sub'ektiv tajribasi bilan ijtimoiy-tarixiy tajribaning "uchrashuvi" yuz berishi kerak. Tadqiqotimizda kuzatilgan past ko'rsatkichlar aynan shu "uchrashuv"ning yetarli darajada samarali tashkil etilmaganidan dalolat beradi.



Uchinchidan, kreativlik ko'rsatkichlarining pastligi (umumiy kreativlik 47 balldan 25.57) alohida tashvishli holat. Ayniqsa, originallik va ishlab chiqish ko'rsatkichlarining pastligi o'quvchilarning reproduktiv, namunaviy fikrlashga moyilligini ko'rsatadi. Xutorskoy A. (2003) ta'kidlaganidek, zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishdir. Abduraxmonov D.A. (2024) tadqiqotlarida esa kreativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning raqobatbardoshligini oshirish, yetuk kadrlar sifatida tarbiyalashga kreativ yondashuvlar orqali ta'lim jarayoniga ta'sir etish masalalari tahlil qilingan. Bizning tadqiqotimizda innovatsion metodlar qo'llaniladigan sinflarda kreativlik ko'rsatkichlari an'anaviy sinflarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi (28.15 ga nisbatan 23.84) kreativlikni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning muhim rolini tasdiqlaydi.

To'rtinchidan, axloqiy-irodaviy sifatlar tahlilida mas'uliyatlilik va maqsadga intiluvchanlik kabi sifatning yuqoriligi, tashabbuskorlik va mustaqillikning pastligi aniqlandi. Bu o'z-o'zini tarbiyalash fenomeni bilan bog'liq. "O'z-o'zini tarbiyalash" tushunchasi pedagogikada insonning ichki ma'naviy dunyosini, uning mustaqil ravishda

rivojlanish qobiliyatini tavsiflaydi. Tadqiqotimizda mustaqillik va tashabbuskorlikning pastligi o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash mexanizmlari yetarli darajada shakllanmaganligidan dalolat beradi. Artyuxova I.S. (2005) ta'kidlaganidek, tarbiya jarayonida o'spirinni o'z-o'zini tarbiyalashga undash zarur.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qitish jarayonining ta'limiy va tarbiyaviy ta'siri o'zaro dialektik bog'liq bo'lib, ularning uyg'unligi shaxs rivojining muhim omili hisoblanadi. Biroq, amaldagi ta'lim amaliyotida ta'limiy va tarbiyaviy komponentlar o'rtasida ma'lum nomutanosiblik mavjud. Xususan, tahliliy fikrlash, ijodiy tashabbuskorlik, mustaqillik kabi sifatning rivojlanish darajasi pastligi bu borada maxsus pedagogik shart-sharoitlar yaratish zaruratini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, individuallashtirish va o'z-o'zini tarbiyalash konsepsiyalarining amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. O'qitish jarayonida o'quvchining sub'ektiv tajribasiga tayanish, uning individual xususiyatlarini hisobga olish, mustaqillik va tashabbuskorlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik strategiyalar shaxs rivojining muhim omilidir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y.
5. Abduraxmonov D.A. Bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2024. – №1. – B. 124-129.
6. Azizzo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2023. – 274 b.
7. Artyuxova I.S. O‘spirinlarni o‘z-o‘zini tarbiyalashga undash muammolari // Psixologiya va pedagogika. – Toshkent, 2005. – №2. – B. 45-49.
8. Vigotskiy L.S. Psixologiya. – Moskva: Eksmo-Press, 2000. – 1008 s. (Rus tilida)
9. Davidov V.V. Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi. – Moskva: INTOR, 1996. – 544 s. (Rus tilida)
10. Fattoyeva O.N. Ta’lim-tarbiyadagi individual yondashuvning shaxs psixologik xususiyatlariga ta’siri // Academic research in educational sciences. – 2023. – №4. – B. 89-95.
11. Xutorskoy A.V. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasi // Pedagogika. – Moskva, 2003. – №7. – S. 14-21. (Rus tilida)
12. Xasanboeva O.U. va boshqalar. Pedagogika tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 524 b.
13. Xodjaev B.X., Choriyev A. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Sano-standart, 2021. – 468 b.
14. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 288 b.
15. Inomova M.O. Oila pedagogikasi. – Toshkent: TDPU, 2021. – 342 b.
16. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2022. – 312 b.
17. Leontev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Smisl, 2005. – 352 s. (Rus tilida)



-
18. Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik. – Toshkent: Sanostandart, 2020. – 328 b.
 19. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. – Toshkent: Fan, 2021. – 294 b.
 20. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Sankt-Peterburg: Piter, 2002. – 720 s. (Rus tilida)